

20-dars. O'rganilganlarni takrorlash



1. Berilgan sonlar orasidan quyidagilarni toping:

- a) **minglar xonasida 8 raqami** turgan sonlarni;
- b) xonalarida **0 raqami** bo'lgan sonlarni;
- d) **yuzlar xonasidagi** raqami minglar xonasidagi raqamidan katta bo'lgan sonlarni;
- e) **yaxlit** sonlarni;
- f) yaxlit sonlarga **qo'shni** bo'lgan sonlarni.

3206

1599

4001

8000

9005

7500

3000

8365

9999



2. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

- a) $12\,280\text{ l} + 10\,160\text{ l} - 15\,120\text{ l}$
- b) $(5\,600\text{ kg} + 2\,900\text{ kg}) - 1\,267\text{ kg}$
- d) $35\,546\text{ cm} - 1\,230\text{ cm} - 1\,170\text{ cm}$
- e) $9\,700\text{ m} - (3\,935\text{ m} + 1\,762\text{ m})$



3. **A**, **B**, **C** va **D** nuqtalar bitta to'g'ri chiziqda ketma-ket joylashgan. Agar **AB** = 2 cm 7 mm, **BC** = 4 cm 3 mm, **CD** = 3 cm 5 mm bo'lsa, daftaringizga **AD** kesmani chizing va uning uzunligini toping.



4. Chust shahrida sayyohlar 8 ta mashhur chust pichog'i va pichoqlardan 4 marta ko'p do'ppi sotib olishdi.

- a) Pichoqlarga nisbatan nechta ko'p do'ppi sotib olingan?
- b) Sayyohlar jami nechta buyum sotib olishgan?



5. Qamchiq dovoni orqali ish kunlari o'rtacha 22300 ta, dam olish kunlari esa ish kunlaridagiga nisbatan 1500 ta kam avtomobil o'tadi. Dovondan yakshanba va dushanba kunlari jami nechta avtomobil o'tadi?



6. Chust do'ppisining asosi **kvadrat** shaklida. Do'ppining har bir tomoniga 4 ta bir xil naqsh to'qilgan. Bitta naqshning uzunligi 4 cm. Do'ppining bir tomoni uzunligini toping.



7. Dushanba kuni Qamchiq dovonidan o'tadigan yo'l soat **10:20** da ochilib, **19:55** da yopildi. Seshanba kuni esa soat **9:30** da ochilib, **18:45** da yopildi. Qaysi kuni yo'l ko'p va qancha vaqt ko'p ochiq bo'lgan?



8. Xaritada **Toshkentdan O'shgacha** bo'lgan yo'l siniq chiziq ko'rinishida tasvirlangan. Bu siniq chiziqning uzunligini santimetrlarda o'lchang.

Toshkent



O'sh

Xaritadagi **1 cm** masofa haqiqiy hayotdagi 20 kilometrni anglatadi. **Toshkentdan O'shgacha** bo'lgan yo'lning uzunligini toping.



9. Beshta o'rtoq bugun haftaning qaysi kuni ekanligi to'g'risida gaplashishdi. Amir: "O'tgan kuni juma edi", dedi. Vali: "Indinga seshanba bo'ladi", dedi. Ilhom: "Kecha shanba edi", dedi. Dilshod: "Ertaga dushanba bo'ladi", dedi. Rustam: "Bugun payshanba", dedi. Ulardan biri adashdi. U kim?



10. Gullar festivalida 4560 ta lola va 2345 ta atirguldand naqsh yasaldi. Naqshda lolalarga nisbatan nechta kam atirgul ishlatilgan?

11. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

- a) $6280 \text{ m} - 2925 \text{ m} - 2936 \text{ m}$
- b) $6602 \text{ dm} - 6067 \text{ dm} + 4109 \text{ dm}$
- d) $7000 \text{ cm} - (2001 \text{ cm} - 1275 \text{ cm})$

